

XVIII – XIX ASR OXIRIGACHA DAVRDA SHIMOLIY SURXON VOHASIDAGI
BEKLIKLARNING MA’MURIY-HUDUDIY BO’LINISHI

Boynazarova Dilfuza Sa’dullayevna

Oltinsoy tumani 54-umumiy o’rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi.

tel: +99891-233-36-19.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1547792>

Annotatsiya. Surxon vohasida esa Sherobod, Denov, Boysun, Sarijo’y va Yurchi kabi bekliklar bo’lgan va bular turli davrlarda tashkil etilib yugatilib turilgan. Ushbu maqolada esa Surxon vohasining shimoliy qismida joylashgan bekliklarni tadqiq qilamiz.

Kalit so’zlar: Sherobod, Denov, Boysun, Sarijo’y, Yurchi, Sina, Qarluq, Po’stindara, Xidrasha (Xidirsho), Do’rmon va Gardaqa ‘rg’on.

Аннотация. В сурхандарьинском оазисе были такие бекства, как Шерабад, Денов, Бойсун, Сариджой и Юрчи, которые были созданы и утрачены в разные периоды. В этой статье мы исследуем бекства, расположенные в северной части Сурхандарьинского оазиса.

Ключевые слова: Шерабад, Денов, Бойсун, Сариджой, Юрчи, Сина, Карлук, Постиндара, Хидраши (Хидириша), Дорман и Гардакурган.

Abstract. In Surkhan Oasis, however, there were stations such as Sherabad, Denov, Boysun, Sarijoy and Yurchi, and these were tshkililildi yugatli at different times. And in this article we will research the stations located in the northern part of the Surkhan Oasis.

Keywords: Sherabad, Denov, Boysun, Sarijoy, Yurchi, Sina, Qarluq, Poshindara, Khidrasha (Khidirsho), Durmon and Gardaqurgan.

Buxoro amirligi XVIII - XIX asrlarda ma’muriy-hududiy jihatdan bekliklarga (viloyat) bo’lingan. Buxoro amirligining sharqiy hududllari va budungi Surxondayo viloyati hududlari ilmiy adabiyotlarda “Sharqiy Buxoro yerlari” deb nomlangan. Buxoro amirligi qo’shbegisining 1915-yilgi ma’lumotiga ko’ra, Sharqiy Buxoroda Boysun, Sherobod, Sarijo’y, Dehnov, Hisor, Qo’rg’ontepa, Baljuvon, Ko’lob, Darvoz bekliklari joylashgan bo‘lib, ular “viloyat” deb atalgan. Har bir viloyat amlokdorliklarga bo’lingan.

Surxon vohasida esa Sherobod, Denov, Boysun, Sarijo’y va Yurchi kabi bekliklar bo’lgan va bular turli davrlarda tshkil etilib yugatilib turilgan. Ushbu maqolada esa Surxon vohasining shimoliy qismida joylashgan bekliklarni tadqiq qilamiz.

Surxon vohasining Denov bekligi XVI - XVII acp o’rtalarida Buxoro amirligining Hisor hokimligi mulki hisoblangan. Rus sayyozi A. Mayev Hisor o’lkasi 9 beklikka bo’lingani haqida ma’lumot bergen. Sayyoohning ta’kidlashicha, quyidagi bekliklar bo’lgan: Boysun, Sherobod, Denov, Yurchi, Hisor, Baljuvon, Ko’lob, Qo’rg’ontepa, Qabodiyon va Darband. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Hisor mustaqil mulklik bo’lgan davrda ham uning siyosiy-ma’muriy markazi Surxon vohasi edi. Denov vohadagi eng qulay geografik hududda joylashgan, iqlimi, suv resurslari dehqonchilik qilish uchun nihoyatda qulay, sarhadlari Hisortog‘ qo’ltiqlarigacha cho’zilgan iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega beklik edi. Shu sababli ko’plab tarixchi. sharqshunos, tadqiqotchilar Denovning strategik o’rniga yuqori baho bergenlar.

Topograf L.F.Kostenkoning yozishicha: «Denov Hisor o'lkasining mahalliy aholi markazlari bilan bog'lanadigan qulay hududda joylashib, inchunun, Surxon voha sining yuqori oqimidagi butun aholi yashaydigan markazlarni bog'laydigan boy madaniy taraqqiyotga ega, hosildor tuproqli joy». Polkovnik D.N.Logofet yozadi: «Denov Hisor o'lkasidagi yirik, ahamiyatli, mashhur shaharlardan biridir. Eng muhimi, birinchidan, harbiy qal'a sifatida butun vohaning janubidagi himoya tayanchi bo'lsa, ikkinchidan, savdo shahri sifatida ulug'vor ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, Hisor o'lkasining beklik markazi sifatida faoliyat ko'rsatadi».

Hisor o'lkasi Buxoro amirligi kuch-qudratli bo'lgan davrda unga bo'ysungan, kuchsizlangan vaqtida birdaniga o'z mustaqilligini e'lon qilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, amir Nasrullo tomonidan Denov begi etib Abdulkarim dodxoh tayinlangan. Amir rus qo'shimidan mag'lubiyatga uchrab, kuchsizlangan vaziyatda unga bo'ysunishni istamagan.

Umuman, Buxoro amiriga qarshi harakat markazida hamisha Denov shahri turgan.

Sherobod bekligidagi singari Denov bekligida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat tufayli amloklik soni o'zgarib turgan. XVIII asr ikkinchi yarmidan XIX asr o'rtalariga qadar beklikda quyidagi amlokliklar bo'lgan: Sina, Qarluq, Po'stindara, Xidrasha (Xidirsho), Do'rmon va Gardaqa'rg'on. Amlokliklarda quyidagi miqdorda aholi yashagan. Sina 1130 xo'jalik, 5650 kishi, Qarluq 610 xo'jalik, 3050 kishi, Po'stindara 365 xo'jalik, 1775 kishi, Xidirsho 485 xo'jalik, 2425 kishi, Do'rmon 295 xo'jalik, 1475 kishi, Gardiqo'rg'on 325 xo'jalik, 1475 kishi, jami 4595 xo'jalik, 25525 kishi. Gardiqo'rg'on amlokdorligi Denov shahrining raboutini ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun Denov shahrida 90 xo'jalik turgan, unga qal'a ahli ham kirgan. Denov bekligining Qarluq amlokdorligidagi Mirshodi qishlog'i tarixiy manbalarda ko'p tilga olingan. Avvalambor, u Boysun Denov yo'lida joylashgan. Qishloqda chorva mollari bozori bo'lib, Janubi-Sharqiy Tojikistondan mollar olib kelingan. Bu yerga nafaqat Buxoro, balki butun O'rta Osiyodan chorva mollari xarid qilishga savdogarlar kelishardi. Sabab, chorva mollari narxi uncha yuqori bo'lmagan. Masalan, 1889 yili qo'y 20-30 tanga, echki 15-20 tanga, yirik shoxli mol 40-50 tanga, ot 120-150 tanga, tuyalar 250-350 tanga sotilgan.

XIX asr o'rtalariga qadar mavjud bo'lgan beklardan biri Yurchidir. Yurchi Denovdan 8 km shimolda joylashgan. Yurchi turkcha «yo'l boshlovchi» yoki «oqsoqol» degan ma'noni anglatadi. Bu yerda dehqonchilik qilish uchun Xo'jaipok suvidan foydalanilgan. Beklik amlokliklari haqida manbalarda quyidagi ma'lumot berilgan. Arxeolog olim Z. Xoliquv Sangardak, Poskor, Chambuloq, O'rtaqo'ri, Yurchi shahri, Y.Avazov Sangardak, Poskor, Chambuloq, O'rtakuri, Yurchi; F.Ochilidiyev Sangardak, Poskor, Chambuloq va Yurchi shahrini amlokliklar sifatida keltirib o'tgan. Umuman, Yurchi bekligi Denov bekligi tarkibiga kirishi arafasida 5 amloklik bo'lgan: Sangardakda 48 hovli, 240 kishi, Poshorda 48 hovli, 240 kishi, Chambuloqlarda 16 hovli, 80 kishi, O'rtaqurida 16 hovli, 80 kishi, Yurchi shahrida 200 hovli, 1200 kishi.

Yurchi shahri o'rta asrlardagi Sangardak o'rnida, ya'ni Qizilsuvning chap qirg'og'ida barpo etilgan. XIX asr ikkinchi yarmidan beklik Denovga qaram amloklik sifatida mavjud edi. D.N.Logofet Yurchi shahrini Denov bekligining yirik amlokdorligi va obod shahri sifatida e'tirof etgan, shaharda 2000 aholi yashaganini ta'kidlagan. Yurchi Denov shahridan 3-4 tosh (1 tosh - 8,5-9 km) masofada joylashganligini va Yurchi qo'rg'oni Denov qo'rg'oniga nisbatan mustahkam va savlatli bo'lganligini qayd etgan.

Qashqadaryo vohasida Kesh va Kitob qanday ahamiyatga ega bo'lsa, Surxon vohasida Denov va Yurchi shahar va qo'rg'onlari shunday muhim ahamiyatga ega edi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Yurchi bekligi tugatilib, Denov bekligi tarkibiga qo'shib yuborildi. Bu davrda Denov beklikligida amlokliklar soni o'n bittaga yetdi.

Sangardak, Poshor, Chambuloq, O'rtaqo'ri, Yurchi, Sina, Qorliq, Pustindara, Xidirsho, Do'rmon, Gardiqo'rg'on.

XIX asrning 70-yillarida Denov bekligi tarkibida yana o'zgarish yuz berib, O'rtaqo'ri, Poshor, Chambuloq va Yurchi amlokliklari Sariojо'y beklikligiga o'tkazildi. Qisqa vaqtbeklik sifatida faoliyat ko'rsatgan Sariojо'y bekligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Xususan, Sharqiy Buxoro bekliklari XIX asrning 70- yillarida Buxoro amirligi tarkibiga qo'shib olingan vaqtida Sariojо'y beklik sifatida e'tirof etilgan. Haqiqatan, Buxoro amiri tomonidan Hisor begi Ostanaqul qo'shbegiga otaliq unvonini berish bilan birga Sariojо'y, Sariosyo, O'rtaqo'ri, Poshor, Chambuloq va Yurchi amlokliklarini tanho sifatida beradi. Ostanakul qo'shbegi esa, o'z navbatida, mana shu olti amloklikni o'g'liga beklik sifatida beradi va shu tariqa yangi Sariojо'y bekligi tashkil topadi. Sariojо'y alohida beklik bo'lsa-da, uning ham siyosiy, ham iqtisodiy nazorati to'liq Ostanaqul qo'shbegi nazoratida bo'lgan. 1887 yili Sariojо'y bekligi tugatilib, Sariojо'y va Sariosyo amlokliklari Hisor bekligi tarkibiga, O'rtaqo'ri, Poshor. Chambuloq va Yurchi Denov bekligi tarkibiga o'tkaziladi.

Xullas, birinchidan, Surxon vohasi bekliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi Buxoro amirligi manfaatlari nuqtayi nazaridan tashkil etilgandi. Ikkinchidan, ma'muriy-hududiy boshqaruv Buxoro amirligi tomonidan beklik markazi va u bilan tutash amlokliklar joylashuvi, xo'jaligi, aholisi soni, milliy tarkibi hisobga olingan holda shakllantirilgan, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar e'tiborga olinmagandi. Uchinchidan, Buxoro amiri tomonidan boshqarilgan ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimiga ushbu sohadan xabardor, aniq bilim va tajribaga ega mutaxassislar tayyorlanmagan va lavozimlarga layoqatli mutaxassislar qo'yilmagan.

To'rtinchidan, har bir amloklik va beklikning boshqaruv tizimi bilan bog'liq qonunlar yaratilmagani tufayli ushbu boshqaruv tizimi faqat yagona qonunga, ya'ni og'zaki, to'g'ridan to'g'ri ko'rsatma berishga asoslangan hamda mas'uliyat his etilmagan.

REFERENCES

1. Qobulov E.A. Sharqiy Buxoro tarixi. Toshkent-2021-yil
2. Ananyev A.G. Sherobod vohasi yerlarini Surxon vohasi yordamida sug'orish loyihasi. Toshkent. 2002-y
3. X.S.Termizi. Dastur ul-muluk. Toshkent-1997.
4. Muhammadjonov A.R. Населенные пункты Бухарского эмирата. - Ташкент: Университет, 2001. - 416 б.
5. Jumayev, M. (2024). SURXONDARYO VILOYATIDAGI BA'ZI TOPONIMLAR VA ULARNING TAHLILI. Modern Science and Research, 3(12), 953-955.
6. Erkin o'g'li, J. M. (2023). TOPONOMIKANING ASOSIY BO'LIMLARI VA ULARNING TARIX UCHUN AHAMIYATI. Better Intellektual tadqiqotlar, 9 (2), 121-125.

7. Jumayev, M. (2023). TARIXIY NOMLARNING MANBALARI VA TA'LIQNING ILMIY ASOSLARI. Zamonaviy fan va tadqiqotlar , 2 (10), 568-576.
8. Jumayev, M. (2023). SOURCES OF HISTORICAL NAMES AND SCIENTIFIC BASIS OF STUDY. *Modern Science and Research*, 2(10), 568-576.